

MOLIYAVIY QARORLAR QABUL QILISHDA LIDERNING TAHLILIIY ROLI**Sattorova Lobar Salimovna**

*Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi,
MBA Liderlik (Leadership) OL-Iuz-25S-e guruh
magistr tinglovchisi,*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada liderlarning moliyaviy qarorlar qabul qilish jarayonidagi tahliliy roli, strategik fikrlash, xavf-xatarlarni baholash va resurslarni boshqarish qobiliyati ilmiy asosda o‘rganiladi. Tahlil jarayonining samaradorligi ko‘p jihatdan jamoaning ijtimoiy-psixologik holati, yetakchilik uslubi va axborot tizimining shakllanganlik darajasiga bog‘liqligi asoslab beriladi. Tadqiqot doirasida mehnat jamoasining rivojlanish bosqichlari, delegatsiya jarayoni va rahbarning analitik hokimiyati moliyaviy boshqaruv kontekstida yoritilgan. O‘zbekiston va xorijiy amaliyotlar misolida liderlikning moliyaviy qarorlar sifatiga ta’siri tahlil qilinadi.*

Abstract: *liderlik, moliyaviy qarorlar, tahliliy rol, jamoa boshqaruvi, delegatsiya, risk-menejment, strategik fikrlash.*

Kalit so‘zlar: *This article examines the analytical role of leaders in the process of financial decision-making, focusing on strategic thinking, risk assessment, and resource allocation skills. The effectiveness of decision-making is shown to be dependent on the team’s socio-psychological climate, leadership style, and the development of the information system. The study analyzes the stages of labor team development, delegation processes, and the leader’s analytical authority within financial management. Examples from Uzbekistan and international practices illustrate how leadership influences the quality of financial decisions.*

Keywords: *leadership, financial decision-making, analytical role, team management, delegation, risk management, strategic thinking*

Kirish (Introduction)

Global iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida tashkilotlar moliyaviy barqarorlikni ta’minlash uchun samarali boshqaruv tizimiga ega bo‘lishi zarur. Moliyaviy qarorlar — tashkilotning rivojlanish strategiyasi, kapital taqsimoti, investitsiya loyihalari, xarajatlarni optimallashtirish va xavf-xatarlarni kamaytirishga bevosita ta’sir qiluvchi jarayon hisoblanadi. Bu jarayonlarning muvaffaqiyati esa yetakchining tahliliy salohiyati, boshqaruv madaniyati va jamoani bir maqsad atrofida birlashtira olish qobiliyatiga bog‘liq.

METHODS: Tadqiqot quyidagi metodlardan foydalanildi tizimli tahlil metodi moliyaviy qarorlar jarayonining ichki mexanizmlari o‘rganildi, Qiyosiy tahlil — O‘zbekiston va xorijiy kompaniyalar tajribasi solishtirildi, Ijtimoiy-psixologik tahlil — jamoaning qarorlar sifatiga ta’siri baholandi., Strukturaviy-funksional yondashuv — liderlikning tahliliy funktsiyalari o‘rganildi.

Natijalar (Results)

Liderning analitik hokimiyati moliyaviy qarorlar sifatini belgilaydi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, liderning moliyaviy hisobotlar, bozor tahlili, investitsion risklar va resurslar taqsimoti bo‘yicha professional bilimiga egaligi qaror qabul qilish tezligi va aniqligini oshiradi. Jamoaning rivojlanish bosqichlari moliyaviy jarayonlarga ta’sir qiladi [1]. Jamoa shakllanishining uch bosqichi (tanishuv, mikrogruphlarning shakllanishi, yetuklik bosqichi) iqtisodiy qarorlar samaradorligiga bevosita ta’sir qiladi. Delegatsiya moliyaviy boshqaruvning asosiy elementi. To‘g‘ri delegatsiya: qarorlarni tezlashtiradi, xatolarni kamaytiradi, jamoaning mas’uliyatini oshiradi. Xatarlarni baholash liderning eng muhim vazifasidir [2]. Shuningdek, Moliya sohasidagi asosiy risklarga valyuta xavfi, inflyatsiya, soliq xavflari, kredit xavflari, ichki firibgarlik riski. Yetakchining risk-menejment qobiliyati kompaniya barqarorligini ta’minlaydi. O‘zbekiston va xorijiy tajribalar natijalarni tasdiqlaydi. Shuningdek, buni O‘zbekiston misolida ko‘radigan bo‘lsak, mamlakatimizdagi “UzAuto Motors” kompaniyasida moliyaviy transformatsiya jarayonlari rahbarlarning analitik qarorlari bilan bog‘liq. “Aloqabank” va “Kapitalbank”dagi raqamli moliya tizimiga o‘tish jarayonida liderlarning tahliliy yondashuvi risklarni kamaytirishiga sabab bo‘lgan. Xorijiy mamlakatlar taxlili shuni ko‘rsatadiki, Apple – risklarni oldindan ko‘rish va innovatsion budjetlash siyosati. Toyota – moliyaviy operatsiyalarda “lean management” orqali xarajatlarni tahliliy qisqartirish. Amazon – ma’lumotlarga asoslangan strategik moliyalashtirish kabilar alohida ahamiyatga ega [3].

Muxokama (Discussion)

Har qanday moliyaviy qaror kuchli tahlil, ishonchli ma’lumotlar va jamoaviy fikr almashinuvi talab etadi. Shu bois, jamoa ichidagi ijtimoiy-psixologik muhit, ishonch va o‘zaro hurmat moliyaviy boshqaruv sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Jamoa quyidagicha yordam beradi:

- turli bo‘limlardan olingan ma’lumotlarni birlashtirish orqali aniq moliyaviy tahlil yaratadi;
- ekspertlar bilimi asosida xatarlarni ko‘radi va muqobil yechim beradi;
- qarorlar ijrosini ta’minlashda mas’uliyat va boshqaruv intizomini oshiradi;
- o‘rtoqlik, hamkorlik, qo‘llab-quvvatlash orqali yetakchining qarorlar samaradorligini kuchaytiradi.

Shu ma'noda, jamoaning ahamiyati moliyaviy natijalar sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Liderning tahliliy rolining tarkibiy qismlari sifatida Liderning moliyaviy boshqaruvdagi roli tarkiban quyidagi elementlardan iborat: Analitik hokimiyat (data-based power). Lider moliyaviy axborotlarga egaligi, hisobotlarni o'qish, tahlil qilish, ulardan real xulosalar chiqarish orqali jamoa ustidan analogik rahbarlik qiladi. Bu hokimiyat: byudjetni shakllantirish, investitsiya loyihalarini baholash, xarajatlarni optimallashtirish kabi masalalarda namoyon bo'ladi[4]. Kasbiy kompetensiya orqali ta'sir o'tkazish Moliyaviy sohada yuqori bilim va tajriba yetakchiga vakolat beradi. Jamoa uni professional lider sifatida qabul qiladi. Strategik fikrlashda Moliyaviy qaror faqat bugungi natija uchun emas, balki uzoq muddatli rivojlanish strategiyasi uchun ham qabul qilinadi[5]. Lider: bozorni tahlil qiladi, raqobatchilarni o'rganadi, investitsiya istiqbollarni baholaydi, muqobil moliyaviy yo'nalishlarni ishlab chiqadi. Vakolatlarni delegatsiya qilishda Lider barcha moliyaviy jarayonlarni yakka o'zi boshqara olmaydi. Shuning uchun u malakali xodimlarga mas'uliyat yuklaydi[6]. Delegatsiya jarayoni to'g'ri tashkil etilsa: moliyaviy qarorlarning aniqligi oshadi, jamoaning ishonchi va faolligi kuchayadi, lider strategik vazifalarga ko'proq vaqt ajratadi. Xavf-xatarlarni boshqarish (Risk management) da Lider quyidagi xatarlarni oldindan ko'ra olishi kerak: inflyatsiya, valyuta o'zgarishi, soliq xavflari, kredit tahdidlari, investitsion risklar, ichki korruptsiya, nazorat yetishmasligi [7].

Moliyaviy qarorlarda ijtimoiy-psixologik omillarda Moliyaviy qarorlar faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy omillarga ham bog'liq: jamoaning motivatsiyasi, yetakchiga bo'lgan ishonch, norasmiy guruhlar ta'siri, jamoaviy fikr, rahbarning obro'si va shaxsiy namunasi. Agar jamoa liderga ishonmasa, hatto eng to'g'ri moliyaviy qaror ham muvaffaqiyatga erishmaydi. Shuning uchun yetakchining psixologik ta'siri moliyaviy jarayonlarda hal qiluvchi o'rin tutadi.

Xulosa: Moliyaviy qarorlar qabul qilish jarayoni — bu raqamlar bilan ishlashdan tashqari, jamoa boshqaruvi, strategik fikrlash, analitik salohiyat, psixologik yetuklik va hokimiyat mexanizmlarini to'g'ri qo'llashni talab etadigan murakkab boshqaruv tizimidir. Moliyaviy yetakchi resurslardan oqilona foydalanishni, jamoa manfaatlarini uyg'unlashtirishni, xavf-xatarlarni oldindan ko'rishni va tashkilotning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashni o'z zimmasiga oladi. Shunday qilib, moliyaviy qarorlarni qabul qilishda liderning tahliliy roli tashkilotning muvaffaqiyati, raqobatbardoshligi va kelajak taraqqiyotining asosiy kafolati hisoblanadi.

References

1. Goncharova N. V. Upravlenie chelovecheskimi resursami organizatsii v usloviyax sovremennogo rymka truda : uchebnoe posobie / N. V. Goncharova, L. V. Dayneko, Ye. V. Zayseva. pod obo‘. red. Ye. V. Zaysevov/– Yekaterinburg : Izd–vo Ural. un–ta, 2021. – 162
2. Qodirov T.U. Inson resurslarini boshqarish. Darslik.// T.U. Qodirov. – T.: Impress media, 2025. -566 bet.
3. Suyunova D.D. Rakamli korporativ boshkaruvni joriy etishning ilg‘or xorij rivojlangan mamlakatlar tajribasi va ijobiy tomonlarini joriy qilish. European science international conference: analysis of modern science and innovation. <https://esiconf.org/index.php/AMSI/article/view/2552/2376>.2025, fevral.
4. Suyunov D.X., Qodirov T.U., Umarova R.Z. Boshqaruv etikasi va korporativ madaniyat. Darslik: T.: 2025, 475 bet.
5. Suyunov D.X., E.A. Xoshimov, Sh.A. Xusainov Korporativ boshqaruv: muammolar va zamonaviy yechimlar. 2018. 220 bet.
6. Suyunov D.X., S.E. Elmirzayev Korporativ boshqaruv. Darslik–Toshkent 2022. 450 bet.
7. Suyunov D.X., A.T.Kenjabayev, A.Ro‘ziyev Elektron tijorat. 2023.450 bet.
8. Lixoletov V.V. Professionalnaya etika i slujebnyy etiket uchebnoe posobie / Lixoletov V.V. – SPb.: IS «Intermediya», 2020. – 168 s.
9. Mirqosimov S.M., Yusupov A.S. Diplomatiya va biznes etiket. O‘quv qo‘llanma. -T.: «IQTISODIYO‘T», 2019. – 242 b.
10. Rasulov A.G‘. Zamonaviy ishchanlik protokoli va etiket. Ishchanlik munosabatlarida etika va madaniyat. O‘quv qo‘llanma. / Rasulov A.G‘., Tadjiev Sh.Sh. -T: «ART FLEX» nashriyoti, 2018. -560 b.
11. Sinisyma T.I. Professionalnaya etika i slujebnyy etiket: uchebnoe posobie / T.I. Sinisyma; Severo-Zapadnyy institut (filial) Universiteta imeni O. Ye. Kutafina (MGYuA), Fond razvitiya filiala MGYuA imeni O.E. Kutafina v g. Vologde. – Vologda, 2022. – 162 s.